<i>Olimov Shahobiddin Maribboy o'g'li, Sulaymonova Maktuba Xusan qizi</i>	
Kasbiy sifatlarini takomillashtirishda raqamli texnologiyalar foydalanish	597
<i>Otanazarova Mohira Xamidbekovna</i>	
Biologiya fanining ta'limdagi o'rni va o'qitishdagi muammolar	601
<i>Pulatova Elnora Kadirovna</i>	
Boshlang'ich sinf darsliklaridagi antroponimlarning funksional, leksik, semantik, morfologik tadqiqi	606
<i>Qarshiyeva Gulbahor Shamil qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish metodik muammo sifatida ..	609
<i>Raxmonova Iroda Samijonovna</i>	
Professional Standards for Pre-Service Teachers	613
<i>Sardor Rakhmanov</i>	
Ta'limni raqamlashtirish sharoitida bo'lajak texnologiya o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari	619
<i>Sayidova Muxtaram Xamidullayevna</i>	
Ingliz tilini o'rgatishda multimodal yondashuv asosida ta'limiy videolardan foydalanish strategiyasi	623
<i>Solijonova Mohlaroyim Abdumalik qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini matn ustida ishlash ko'nikmalarini shakllantirishda interfaol metodlardan foydalanish	628
<i>Sotiboldiyeva Shoxista Jaloliddin qizi, Shodmonqulova Sevara Rahmonqul qizi</i>	
O'quv-tarbiyaviy vaziyatlarni loyihalashtirish asoslarida talabani tarbiyaviy jihatlarini takomillashtirish ..	632
<i>Temirov Ma'ruf Shuhrat o'g'li</i>	
Tikuv buyumlarini konstruksiyalash va modellashtirishning avtomatlashtirilgan tizimlari fani orqali talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari	638
<i>Umarova Fotima Abduraximovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda xalq pedagogikasi vositasida milliy xarakter xususiyatlarini shakllantirish omillari	641
<i>Usmonova Muattar Bahadirjonovna, Hasanboyeva Kamola Dilmurod qizi</i>	
Raqamli ta'lim texnologiyalarning bugungi kunda ta'lim sohasidagi qo'llanilishi	647
<i>Xamroyeva Madina Dadajonovna, Umarov Husan Lazizi o'g'li</i>	
Qurilish materiallari sanoatida innovatsion klasterlarni boshqarishni takomillashtirish	650
<i>Xaydarova E'zoza Shukurullayevna, Li Zin Bo</i>	
Geografiya ta'lim yo'nalishi talabalarini o'qitish metodikasi va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga oid tadqiqot ishlarining tahlili	655
<i>Xodjaniyazova Shoxsanam Ergash qizi</i>	
O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umurlar" romanida inson va uning ruhiyati	660
<i>Xolmatova Ro'zixon Akmaljon qizi</i>	
Talabalarda liderlikni shakllantiruvchi ijtimoiy-pedagogik omillar	663
<i>Xoshimova Muazzamxon Zaynalobidinovna</i>	
Creative Games and Project-Based Learning in Physics Lessons	666
<i>Yorqinbek Abduraimjanovich Mamatokhunov</i>	
Теоретические основы и практическое применение компетентного подхода в обучении физике	670
<i>Абдулхаким Хакимов</i>	
Роль инклюзивной игровой деятельности в социальной адаптации детей с инвалидностью дошкольного возраста	673
<i>Плиева Руслана Владимировна</i>	
"Beruniy asri" yoxud Beruniyning xarizmatik qobiliyati va uning boqiy ilmiy merosi	676
<i>Saifnazarov Ismoil, Sultonov Tursinboy</i>	
Значение наблюдения и педагогической диагностики в инклюзивном образовании	682
<i>Тургунова Нилуфар Абдусаломовна</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik dunyoqarashini shakllantirish texnologiyalari	685
<i>Xaydarova Shaxlo Narzullayevna, Azimova Gulmira Xayrullayevna</i>	
Диалог культур в рассказе "Келинка" галины ширяевой: гендерная и этнокультурная перспектива ..	689
<i>Чернова Татьяна Алексеевна</i>	
Ijtimoiy va gumanitar fanlarning pedagogik ahamiyati: Xo'ja Vali avlodlari misolida	692
<i>Umurov Sharif Rajabovich</i>	



Raqamli ta'lim sharoitida talabalar mustaqil tayyorgarligini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari: didaktik yondashuvlar va ilg'or ilmiy modellarning tahlili.....	695
Umarova Zaxro Abduraxim qizi	
Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda innovatsion yondashuvga oid dolzarb masalalar	701
Sharofat Juraqulova Baxtiyorovna	
Bo'lajak ingliz tili mutaxassislarining sun'iy intellekt kompetensiyasi.....	704
Ibragimova Hilola Bahodirjon qizi	
Oliy ta'lim muassasalari talabalari orasida kurash sport turini keng rivojlantirish	709
Ochilov Elbek Olimovich	
Muhandislik grafikasi ta'limida talabalarining grafik ishlarni bajarish ko'nikmalarini rivojlantirish.....	712
Ashirboyev A. O., Muxamedjanova G. J.	
Futbol mashg'ulotlarida o'quvchilarda jamoaviy ruhni pedagogik usullar bilan rivojlantirish	715
Axmedjanov Shuhrat Boltayevich	
Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida nutqiy va lingvistik kompetensiyalarini shakllantirish	718
Bamullayeva Shodiyona Nasrullo qizi	
Umumiy o'rta ta'lim o'quv dasturlarining sifat va samaradorligini oshirishning nazariy hamda ilmiy asoslari	721
Esanov Muzaffar Xoshimovich	
Bo'lajak tarbiyachilarni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash texnologiyalari	726
Eshmuminova Dilshoda Iskandarovna	
Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida pedagogik yondashuvlarning roli	730
Jumanova Iroda Shokirjon qizi	
Arab xattotlik san'atining rivojlanishi.....	733
Mamarajabov Mirqosim Ramazon o'g'li	
Educational Effectiveness of the Question-and-Answer Technique in Working With English Texts	737
Muradulloyeva Sevinch Soxibjon qizi	
Boshlang'ich sinf matematika va geometriya darsliklarida STEAM yondashuvi asosida o'qitishning imkoniyatlari.....	740
Nazarova Shahzoda	
Boshlang'ich ta'lim o'quv jarayoniga sun'iy intellektni tatbiq etishning metodik asoslari (sinfidan tashqari ishlar misolida)	744
Nigmatullayeva Matluba Izatullo qizi	
Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining o'quvchilarda ijtimoiy faollikni shakllantirishdagi pedagogik imkoniyatlari	748
Normaxmatov Ilhom Zayniddinovich	
Boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishda sun'iy intellekt texnologiyalarining imkoniyatlari.....	751
Qurbonov Sanjar Rajabboyevich	
Sportchi salomatligini baholashda zamonaviy texnologiyalar.....	754
Samandarov A. X.	
Sport tashkilotlari uchun marketing, e-marketingning foydalari	758
Samatov Javlonbek Abdukayumovich	
Futbol o'yinlari orqali o'quvchilarda jismoniy tarbiya pedagogikasining ahamiyati	762
Sattarov Qarshiboy Norqulovich	
Kichik maktab yoshidagi bolalarda lingvistik kreativ intellektni shakllantirishning pedagogik shartlari	765
Shodiyev Rizamat Davronovich, Jabborova Maftuna Komil qizi	
Ota-onalar bilan samarali hamkorlikni tashkil etishda direktorning strategik yondashuvi.....	770
Tog'ayeva Shahnoza Shavkatovna	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa tinglash	774
Xodjayeva Nilufar Latipovna	
Talabalarda kitobxonlik madaniyatini targ'ib qilish orqali sog'lom fikrlarni shakllantirish masalasi.....	778
Xudayberganova Nargisa Qurbonbayevna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkurini rivojlantirishda interfaol metodlarning ahamiyati	782
Kursanova Marjona Baxtiyor qizi	
Sun'iy intellekt – bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilari ta'limini modernizatsiya qilish vositasi sifatida	785
Yoqubaliyeva Dilafruz Payzidin qizi	
Tibbiy pedagogika: kasbiy ta'limda sog'lom turmush tarzi shakllantirishning psixopedagogik asoslari.....	788
Ziyatov Muhammad Namazovich	
Интерактивное обучение в развитии личности и критического мышления студентов	792
Рысова Галия Байбулатовна	



SUN'IY INTELLEKT – BO'LAJAK TARBIYA FANI O'QITUVCHILARI TA'LIMINI MODERNIZATSIYA QILISH VOSITASI SIFATIDA

Yoqubaliyeva Dilafro'z Payzidin qizi

Pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi
Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy ta'lim tizimida sun'iy intellekt (AI) texnologiyalarining qo'llanilishi orqali bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarining ta'limini modernizatsiya qilish imkoniyatlari tadqiq etiladi. Sun'iy intellektning ta'lim sohasidagi ahamiyati, uning o'qituvchilarni tayyorlash jarayoniga ta'siri hamda innovatsion yondashuvlar yordamida ta'lim sifatini oshirish usullari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, sun'iy intellekt asosida yaratilgan dasturlar, virtual yordamchilar va individual ta'lim tizimlarining o'qituvchilarning kasbiy-metodik mahoratini oshirishdagi roli tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt (AI), ta'limni modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalar, ta'lim jarayoni, raqamli ta'lim, o'qitish metodologiyasi, ta'lim sifatini oshirish, sun'iy intellekt ilovalari, pedagogik mahorat.

Abstract: The article examines the possibilities of modernizing the education of future teachers of educational science through the use of artificial intelligence (AI) technologies in the modern education system. It highlights the importance of artificial intelligence in education, its impact on teacher training processes, and methods of improving educational quality through innovative approaches. The role of AI-based programs, virtual assistants, and personalized learning systems in enhancing teachers' professional and methodological competencies is also analyzed.

Key words: artificial intelligence (AI), educational modernization, innovative technologies, educational process, digital education, teaching methodology, quality of education, AI applications, pedagogical competence.

Аннотация: В статье исследуются возможности модернизации подготовки будущих преподавателей педагогических дисциплин за счёт применения технологий искусственного интеллекта (ИИ) в современной системе образования. Раскрывается значение ИИ в образовательной сфере, его влияние на процесс подготовки педагогов и пути повышения качества образования с использованием инновационных подходов. Также анализируется роль программ, виртуальных помощников и индивидуальных образовательных систем на основе ИИ в развитии профессионально-методических компетенций учителей.

Ключевые слова: искусственный интеллект (ИИ), модернизация образования, инновационные технологии, образовательный процесс, цифровое образование, методология преподавания, качество образования, приложения ИИ, педагогическая компетентность.

KIRISH

Zamonaviy texnologiyalar, ayniqsa sun'iy intellekt (AI), ta'lim sohasida keng ko'lamli o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarining ta'limini modernizatsiya qilishda sun'iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi yangi imkoniyatlar va innovatsion yechimlarni taqdim etadi. Bu esa nafaqat o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga, balki ta'lim jarayonini yanada samarali va qulay shakllantirishga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda yurtimizda barcha sohalarda, xususan, ta'lim tizimida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, sun'iy intellekt (artificial intelligence – AI) texnologiyalarining salohiyati va ahamiyati e'tirof etilib, ularni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Tezkor texnologik taraqqiyot davrida sun'iy intellekt hayotning deyarli barcha jabhalariga chuqur kirib borib, rivojlanishning asosiy omiliga aylanib bormoqda.

Mazkur texnologiyalar samaradorlik va unumdorlikni oshirishdan tortib, ilm-fan va innovatsiyalar sohasidagi ilg'or yutuqlargacha bo'lgan jarayonlarga katta hissa qo'shmoqda. Shu munosabat bilan sun'iy intellektni ilmiy-amaliy faoliyatga joriy etishda malakali kadrlar salohiyatini oshirish dolzarb masalaga aylangan. Aynan kasbiy mahoratga ega mutaxassislar sun'iy intellekt texnologiyalarining barcha jabhalarga integratsiyasida muhim rol o'ynaydi.

Bugungi kunda bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarining kasbiy-metodik rivojlanishini ta'minlash orqali ularni zamonaviy ta'lim jarayoniga moslashtirish va sun'iy intellektdan samarali foydalanishga tayyorlash ta'lim sifatini oshirishning muhim shartlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sun'iy intellekt texnologiyalari raqamli texnologiyalarning eng tez rivojlanayotgan istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar tarkibiga kiruvchi sun'iy intellektdan nafaqat ta'limda, balki hayotning barcha jabhalarida samarali foydalanish mumkin. Sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali shaffoflikni ta'minlash, firibgarlikni oldini olish, ma'lumotlarni tahlil qilish va katta hajmdagi axborot bilan ishlash imkoniyatlari yaratiladi. Ayniqsa, ta'lim sohasida virtual o'quv muhitini shakllantirish va masofaviy ta'limda qulayliklar yaratish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4996-sonli¹ qarorida "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasiga muvofiq sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish va mamlakatimizda keng qo'llash, raqamli ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, ularning sifatini oshirish, hamda ushbu yo'nalishda malakali kadrlar tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish belgilab berilgan^[1].

Ushbu qarorga muvofiq:

- "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini to'liq amalga oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish, iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvi tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish;
- sun'iy intellekt sohasida fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlar olib borish, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish bo'yicha ilmiy ekotizimni shakllantirish;
- sun'iy intellekt asosida boshqaruv va ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish uchun innovatsion mahsulotlar, ularning modellarini, algoritmlarini va dasturiy ta'minotini ishlab chiqish;
- ilg'or xorijiy innovatsion va ilmiy muassasalar bilan hamkorlikni rivojlantirish, qo'shma loyihalarni amalga oshirish kabi vazifalar belgilangan.

Bugungi kunda sun'iy intellektning ta'limdagi ahamiyati beqiyosdir. Ushbu texnologiyalar orqali ta'lim sohasiga yangi metodologiyalar joriy etish, o'quv jarayonini shaxsiylashtirish va ta'lim resurslarini samarali boshqarish imkoniyatlari yaratilmoqda. Al yordamida o'qituvchilar uchun individual ta'lim dasturlari, interfaol platformalar va virtual yordamchilar ishlab chiqilmoqda.

Sun'iy intellekt – bu kompyuter tizimlari va dasturlari orqali insonning aqliy faoliyatini, tushunchalarini shakllantirish, ma'lumotlarni saqlash, tahlil qilish va boshqa murakkab aqliy jarayonlarni bajarish qobiliyatiga ega bo'lgan texnologiyalar majmuidir.

Hozirgi globallashtirish sharoitida sun'iy intellekt ta'lim sohasida o'z o'rnini tobora mustahkamlab bormoqda. Bu texnologiyalar ma'lumotlarni o'rganish, tahlil qilish, qayta ishlash va tushunish asosida ishlaydigan axborot tizimlarini yaratishga xizmat qilmoqda. Bunday tizimlar o'quv jarayonida ma'lumotlarni tanib olish, aniqlashtirish, tahlil qilish va xulosa chiqarish kabi funksiyalarni bajaradi.

Inson imkoniyatlariga nisbatan sun'iy intellekt asosida ishlaydigan tizimlar ta'limda ko'plab ustunliklarni taqdim etmoqda. Jumladan, o'quvchilarning individual ehtiyojlariga mos ta'lim, vaqt va resurslardan tejimli foydalanish, bilimlarning uzluksiz monitoringi va shaxsiy yondashuvning kengayishi kabi jihatlarni keltirib o'tiladi^[2].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda ma'lumotlar ilmiy maqolalar, hukumat qarorlari, raqamli platformalar va sun'iy intellektga oid onlayn manbalar orqali yig'ildi. Tahlil sifatida mazmuniy-analitik yondashuvdan foydalanilib, o'qituvchilarning kasbiy-metodik tayyorgarligida sun'iy intellekt vositalarining ta'siri kontekstual tahlil asosida baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sun'iy intellekt nafaqat talaba-yoshlar, balki o'quvchilarga ham ta'lim jarayonida ko'plab qulayliklar yaratmoqda. Masalan, intensiv ta'lim dasturini ishlab chiqish va uni qiziqarli hamda mazmunli tarzda tashkil etishda o'qituvchilar va bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarining qiziqishlariga mos mavzularni aniqlash, ular haqida ma'lumot to'plash, tahlil qilish va tushuntirish imkoniyatlarini oshirishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish muhim o'rin tutadi. Al texnologiyalari yordamida genetika, robototexnika, ko'rgazmali o'qitish, tabiiy tillarni o'rganish va boshqa sohalar bilan integratsiyalashgan holda ta'limni rivojlantirish mumkin. Bu kabi imkoniyatlar nafaqat keng jamoatchilik, balki ta'lim ishtirokchilari uchun ham sezilarli yengilliklar yaratadi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4996-sonli qarori: <https://lex.uz/docs/-5297046>



Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini tayyorlashda sun'iy intellektning (AI) roli hozirgi rivojlanish bosqichida nihoyatda muhim sanaladi. AI texnologiyalari orqali o'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish, ularga innovatsion uslublarni o'rgatish va bilimlarini doimiy yangilash imkoniyati yaratiladi. Masalan, AI asosida ishlab chiqilgan simulyatsiyalar yordamida o'qituvchilar dars jarayonida yuzaga keladigan turli holatlarni amaliy tarzda model qilish imkoniga ega bo'ladilar.

Bugungi kunda sun'iy intellekt ilovalari murakkab funksiyalarni bajarishga qodir bo'lib, ovozli yordamchilardan tortib, fond bozorini bashorat qilish algoritmlari, tabiiy tillarni qayta ishlash va tasvirni aniqlash tizimlarigacha keng rivojlangan. Sun'iy intellekt yordamida zamonaviy ta'limda asosiy maqsad – ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarflamasdan, qisqa vaqt ichida yuqori natijalarga erishish – samarali amalga oshirilmoqda. Aynan bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini kasbiy-metodik rivojlantirish va mazkur fan doirasidagi ta'limda sun'iy intellektidan oqilona, maqsadli va samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda ham AI asosidagi ta'lim resurslaridan foydalanishga ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Sun'iy intellekt asosida ishlab chiqilgan platformalar – masalan, ChatGPT, virtual laboratoriyalar, avtomatik baholash tizimlari – o'qituvchilarning ishini yengillashtiradi, vaqt tejashiga xizmat qiladi va individual yondashuvni rivojlantirish imkonini beradi. Bu esa o'quvchi va talabalarga ko'proq e'tibor qaratish imkoniyatini yaratadi.

Davlatimizda ilm-fanni rivojlantirish yo'lida raqamli texnologiyalardan keng foydalanilmoqda. Bu orqali ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida yuqori natijalarga erishilmoqda. Hayotning o'zi ushbu yondashuvning to'g'riligini isbotlab bermoqda.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, Amerika Qo'shma Shtatlari va Xitoy sun'iy intellekt sohasida ilmiy tadqiqotlar va ta'lim jarayonlarini rivojlantirishda yetakchi hisoblanadi. Ushbu davlatlarda dunyoning eng nufuzli oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalari joylashgan bo'lib, davlat tomonidan innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari yo'lga qo'yilgan va katta hajmdagi moliyaviy ko'mak ajratilmoqda. Natijada AQSh va Xitoy sun'iy intellekt sohasida malakali kadrlarni jalb qilishda global miqyosda ustunlikka ega ^[3].

Ta'lim sifatini oshirishda sun'iy intellekt imkoniyatlari keng. AI texnologiyalari yordamida bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarining bilim darajasini baholash, ularning zaif jihatlarini aniqlash hamda ularga moslashtirilgan ta'lim dasturlarini ishlab chiqish imkoniyati mavjud. Bu esa ta'lim jarayonining natijadorligini oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytish mumkinki, sun'iy intellekt texnologiyalari bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarining ta'limini modernizatsiya qilishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu texnologiyalar yordamida o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish, ularga innovatsion yondashuvlarni o'rgatish va ta'lim jarayonini samarali boshqarish imkoniyatlari yaratilmoqda. Shu bois, sun'iy intellekt texnologiyalarini ta'lim tizimiga joriy etish hamda o'qituvchilarni bu texnologiyalar bilan ishlashga tayyorlash zamonaviy ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Shuningdek, sun'iy intellekt ko'plab global muammolarni hal etish salohiyatiga ega kuchli vositadir. Biroq undan foydalanish jarayonida axloqiy tamoyillar va barqaror texnologik rivojlanish tamoyillari inobatga olinishi zarur. Zero, sun'iy intellektning tezkor rivojlanishi bilan bog'liq bir qator xavf va muammolarni ham oldindan baholash va ularni boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4996-son qarori (<https://lex.uz/docs/-5297046>).
2. Sun'iy intellektning afzalliklari va kamchiliklari. <https://www.javatpoint.com/advantagesand-disadvantages-of-artificial-intelligence>.
3. Sun'iy intellektning ijobiy va salbiy tomonlari: unda ishlashining 15 sababi. (<https://livesglobe.com/pros-cons-artificial-intelligence-classroom/>).
4. Poole, David, and Alan K. Mackworth. Artificial Intelligence: Foundations of Computational Agents. Cambridge University Press, 2017.
5. Yoqubaliyeva, D. Z. (2024). Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini kasbiy-metodik rivojlantirish orqali fanni o'qitishga tayyorlash. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 1(4), 190–192.
6. Yoqubaliyeva, D. Z., & Norqobilov, D. (2024). Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarida kreativlik sifatlarini rivojlantirish orqali ularni zamonaviy pedagogik faoliyatga tayyorlash. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 1(4), 63–65.
7. Yakubaliyeva, D. (2023). Preparation for the organization of scientific research works in students of pedagogical higher education institutions. Science and Innovation, 2(B12), 447–452.
8. Dilafo'z, Y., & Umida, H. (2024). Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining kasbiy salohiyatini rivojlantirish. Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari, 8(2), 61–64.
9. Umida, U., & Dilafo'z, Y. (2023). O'quvchi yoshlarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish. Universal Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture, 1(1), 106–115.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.